



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- yil
yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-iyun)

68,7%



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi**

5 116,7
ming so'm




**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi**

60,0%




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi**



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
(1- iyul holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar-iyun)




Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- iyul holatiga ko'ra)



Soni, birlikda

2024

16 683

2023

17 349

2022

17 494

2021

15 670

2020

12 806

Soni, birlikda

2024

1 375

2023

2 103

2022

1 524

2021

1 697

2020


1 339

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(yanvar-iyun)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyun)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-iyun)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqilgan




Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Buxoro viloyati¹⁾	10 493,8	100,0	110,0
tumanlar:			
Olot	333,7	3,2	108,5
Buxoro	520,2	4,9	109,2
Vobkent	726,1	6,9	122,1
G'ijduvon	1 245,8	11,9	108,6
Kogon	355,8	3,4	108,7
Qorako'l	450,9	4,3	108,4
Qorovulbozor	211,9	2,0	107,2
Peshku	564,2	5,4	108,9
Romitan	557,6	5,3	107,5
Jondor	555,9	5,3	109,1
Shofirkon	458,9	4,4	108,1
shaharlar:			
Buxoro sh.	4124,5	39,3	110,3
Kogon sh.	388,3	3,7	108,2

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-iyun)


	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Buxoro shahri	13 934,1	108,1%
Qorovulbozor	10 594,6	105,0%
Kogon shahri	5 983,5	106,7%
Vobkent	4 866,4	119,8%
Peshku	4 290,8	107,1%
Kogon	4 191,4	106,4%
G'ijduvon	3 848,5	106,8%
Romitan	3 676,1	106,0%
Olot	3 187,3	106,9%
Jondor	2 987,0	107,2%
Buxoro	2 904,3	119,8%
Qorako'l	2 616,9	107,0%
Shofirkon	2 456,6	107,0%

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyun)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **60,0** foizni, shu jumladan, **19,6** foizini kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-iyun)






Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyun)


Xizmat turlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	10 493,8	100,0	110,0
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	433,7	4,1	115,4
Moliyaviy xizmatlar	2 158,4	20,6	103,2
Transport xizmatlari	2 067,8	19,7	108,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 862,0	17,7	109,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	464,1	4,4	111,4
Savdo xizmatlari	3 114,7	29,7	111,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	196,9	1,9	104,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	696,6	6,6	138,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	211,2	2,0	109,8
Ijara xizmatlari	220,0	2,1	102,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	232,1	2,2	113,0
Shaxsiy xizmatlar	259,2	2,5	109,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	83,1	0,8	100,6
Boshqa xizmatlar	356,0	3,4	105,8

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun, mlrd so'mda)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-iyun)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-iyunida 92,7** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **62,1** foizni yoki **1 341,1** mlrd so'mni tashkil etdi.


2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan Kogon tumanida yuqori o'sish sur'ati **110,8** foizni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **90,0** foiz.

Buxoro shahrida transport xizmatlari hajmi **511,6** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur shaharda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **108,4** foizni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-iyun)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi

2024- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **69,1** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun)



Buxoro shahri	674,7	+9,2%
G'ijduvon	439,4	+6,6%
Vobkent	406,2	+38,8%
Peshku	242,3	+8,5%
Kogon	189,5	+9,6%
Buxoro	175,3	+8,4%
Romitan	172,5	+7,5%
Jondor	170,6	+10,3%
Shofirkon	160,9	+8,1%
Qorako'l	158,1	+7,1%
Olot	122,7	+7,4%
Kogon shahri	110,7	+5,5%
Qorovulbozor	91,8	+9,0%

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda □ O'sishi


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyun)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi ulushi **90,7 %** ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun)




¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-iyun)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-iyun** oylaridagi ulushi **82,7** foizni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024- yil yanvar-iyun, mlrd so'mda)

Buxoro shahri	613,0
Qorako'l	13,8
Kogon	11,8
G'ijduvon	10,6
Buxoro	7,9
Jondor	7,7
Romitan	6,4
Shofirkon	6,1
Peshku	5,0
Kogon shahri	4,9
Vobkent	4,3
Olot	3,1
Qorovulbozor	2,0


Shahar va tumanlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Buxoro shahriga to'g'ri keladi. **2020- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan mazkur shaharda ushbu xizmat turi hajmi **449,5** mlrd so'mga oshdi va ko'rib chiqilayotgan davrda **613,0** mlrd so'mga yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **88,0** foiziga yetdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-iyun** oylaridagi ulushi **44,8** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **39,9** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **15,3** foizni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun)




Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾


(yanvar-iyun)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **95,3** foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-iyun)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd so'mda


 O'sishi




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

2024- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **21,3 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **78,7** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyun)




Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun)




¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun, mlrd so'mda)




2020-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ko'rib chiqilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **115,9** mlrd so'mga oshib, **220,0** mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **57,8** foizni tashkil etadi.

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyun)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 31,7 foizini tashkil etadi.

Shahar va tumanlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun)


Buxoro shahri	52,1	+12,5%
G'ijduvon	41,0	+12,1%
Buxoro	16,1	+15,4%
Qorako'l	14,8	+15,6%
Romitan	14,2	+16,3%
Peshku	14,1	+13,8%
Jondor	14,0	+11,1%
Vobkent	13,8	+14,2%
Shofirkon	13,4	+13,6%
Olot	12,7	+13,0%
Kogon	11,6	+16,4%
Kogon shahri	11,5	+14,6%
Qorovulbozor	2,8	+13,6%

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun, mlrd so'mda)



2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **37,8** mlrd so'mga oshib, **83,1** mlrd so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **57,0** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 65-223-79-41